



Guljahan BAZARBAEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
E-mail: guljahanbazarbaeva@gmail.com, ORCID:

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) A.Shukurov taqrizi asosida

THE KOBYZ IN THE JIR TRADITION: ITS ROLE IN THE PERFORMANCE OF KARAKALPAK FOLK EPICS

Annotation

This article examines the historical formation of the musical instrument kobyz, its role in the musical culture of Turkic peoples, particularly the Karakalpak people, and its significance in the traditions of epic performance. The study analyzes scholarly views related to the origin of the kobyz, as well as legends and myths found in oral folklore sources and information related to Korkyt Ata. In addition, the artistic and functional features of the kobyz in the performance of epics and jir in the tradition of epic storytelling are explored.

Key words: kobyz, epic performance, jirau tradition, Korkyt Ata, Karakalpak folklore, folk epics, musical culture, Turkic peoples, oral tradition.

КОБЫЗ В ТРАДИЦИИ ЖИРОВСТВА: РОЛЬ В ИСПОЛНЕНИИ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ДАСТАНОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются историческое формирование музыкального инструмента кобыз, его место в музыкальной культуре тюркских народов, в частности каракалпакского народа, а также его значение в традициях эпического исполнительства. В ходе исследования были проанализированы научные взгляды, связанные с происхождением кобыза, легенды и предания, встречающиеся в образцах устного народного творчества, а также сведения, связанные с Коркыт-ата. Кроме того, изучены художественные и функциональные особенности кобыза в процессе исполнения эпических произведений - дастанов и жиров - в искусстве жировства.

Ключевые слова: кобыз, эпическое исполнительство, традиция жировства, Коркыт-ата, каракалпакский фольклор, народные дастаны, музыкальная культура, тюркские народы, устное народное творчество.

JIROVCHILIK AN'ANASIDA QO'BIZ: QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARI IJROSIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada qo'biz cholg'u asbobining tarixiy shakllanishi, uning turkiy xalqlar, xususan qoraqalpoq xalqining musiqa madaniyatidagi o'rni hamda epik ijrochilik an'alaridagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida qo'bizning kelib chiqishi bilan bog'liq ilmiy qarashlar, xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan rivoyat va afsonalar hamda Qo'rqit bobo bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, qo'bizning jirovchilik san'atida doston va jirlarni ijro etish jarayonidagi badiiy va funksional xususiyatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: qo'biz, epik ijrochilik, jirovchilik an'anasi, Qo'rqit bobo, qoraqalpoq folklori, xalq dostonlari, musiqa madaniyati, turkiy xalqlar, og'zaki ijod.

Kirish. Qoraqalpoq xalqining boy og'zaki ijodiy merosida dostonchilik an'anasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu an'anada jirovlar tomonidan ijro etiladigan dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy dunyosi hamda axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Jirovlar dostonlarni ijro etishda asosan qo'biz cholg'u asbobidan foydalanib, uni o'zining milliy va an'anaviy ijrochilik vositasi sifatida qadrlagan. Qo'biz nafaqat doston ijrosiga musiqiy hamroh bo'luvchi cholg'u, balki xalqning ruhiy olami, falsafiy qarashlari va qadimiy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ramziy ahamiyatga ega asbob sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning jarangi orqali jirovlar doston qahramonlarining ruhiy kechinmalarini, voqealarning dramatik rivojini va xalq hayotiga xos chuqur ma'naviy mazmuni tinglovchilarga yetkazadilar. Shu sababli qo'biz qoraqalpoq dostonchilik an'anasida nafaqat ijro vositasi, balki xalqning tarixiy tafakkuri va falsafiy qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy timsol sifatida ham e'tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tarixiy-tahliliy metod yordamida qo'biz cholg'usining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali turli ilmiy manbalarda berilgan ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, folklorshunoslik metodlari asosida xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan doston va jirlar tahlil qilindi. Tarixiy manbalar hamda folklor materiallariga tayangan holda qo'bizning epik ijrochilik an'anasidagi o'rni va

ahamiyati ilmiy jihatdan yoritildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qo'bizning tuzilishi ochiq havoda turgan qadimgi yunon teatri saxnasiga o'xshash uslubda bo'lib, qattiq sado bilan chiqishi uchun asbobning tuzilishi mana shu yunon saxnalariga qiyoslanadi. Qadimgi turkiy xalqlarda qo'biz faqat musiqiy asbob sifatida emas, balki ijtimoiy va siyosiy vazifalarni ham bajargan. U xalqqa podshohning so'zini yetkazuvchi tribuna, aholi diqqatini jalb qiluvchi vosita, urushda askarlarni ruhiy tarbiyalash va ularni jangga tayyorlashda, yig'inlarda xalqning diqqatini birlashtirishda ham keng qo'llanilgan. Shuningdek, qo'biz va jirov podshohlari va amaldorlar tomonidan boshqaruv vositasi sifatida ham foydalanilgan. Ikkinchi jihatdan, qo'biz xalqning ota-bobolaridan kelayotgan nasixat so'zlari, tema, to'lg'ov va botirlar jirini yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Xalq qo'bizda ijro etilgan so'zlarni qonun va madaniy me'yor sifatida qabul qilgan.

Qo'biz [1] cholg'u asbobining paydo bo'lish vaqti aniq belgilanmagan bo'lsa-da, u turkiy xalqlar madaniyatida eng qadimiy musiqiy asboblardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy va folklor manbalarida qo'bizning kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati uning ilk ijodkori sifatida Qo'rqit bobo nomini tilga oladi. Afsonalar va xalq og'zaki ijodi namunalariga ko'ra, qo'bizni ilk bor yaratgan va uni ijro etgan shaxs Qo'rqit bobo [2] hisoblanadi. U turkiy xalqlar madaniy merosida muhim o'rin tutadigan qadimiy yodgorliklardan biri -

«Kitabi dedam Qo'rqit»[3] asarida ham alohida tilga olingan. Mazkur asarda Qo'rqit bobo qo'bizni qo'lga olib, xalq orasida yurib, turli doston va jirlarni ijro etgani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, asarda Qo'rqit bobo nafaqat ijrochi, balki xalqning ma'naviy rahnamosi sifatida ham tasvirlanadi. U el-yurt orasida yuzaga kelgan ma'naviy va ruhiy qiyinchiliklar paytida odamlarga maslahat va yo'l-yo'riq ko'rsatgani ta'kidlanadi. Qo'biz sadolari orqali u xalqning qayg'u va iztiroblarini yengillatgan, shu bilan birga, o'tgan zamon botirlari xotirasini yodga solib, ularning ma'naviy qiymati va ta'sirini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Qozoq xalqining musiqiy merosida «Qo'rqit kuyi» [4] deb nomlanuvchi nag'ma mavjud bo'lib, uning kelib chiqishi Qo'rqit bobo nomi bilan bog'lanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Qo'rqit bobo hayot va o'lim haqidagi chuqur mushohadalari hamda ruhiy iztiroblari ta'sirida yog'ochdan ilk bor qo'biz yasab, unga tor tortib, o'zining qayg'uli kechinmalari va his-tuyg'ularini musiqa orqali ifoda etgan. Shu tariqa qo'biz nag'malari orqali insonning ichki ruhiy holati va falsafiy qarashlari ifodalangani ta'kidlanadi. Shuningdek, ushbu rivoyatlarda Qo'rqit bobo tomonidan yaratilgan qo'biz keyinchalik keng hududlarga tarqalgani, uning nomi esa xalq xotirasida va musiqiy an'analarda abadiy saqlanib qolganini qayd etiladi.[5]

Qo'rqit bobo va uning qo'biz cholg'usi bilan bog'liq rivoyatlar qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi va jirovchilik an'anasida ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu rivoyatlarda Qo'rqit bobo barcha jirovlarning piyri sifatida e'tirof etiladi va uning qo'biz cholg'usini yaratishi hamda ilk nag'malarni ijro etishi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Adabiyotshunos olim K.Mambetov tomonidan 1965-yilda Kegayli tumanida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya davomida mahalliy aholi orasidan qator folklor ma'lumotlari yozib olingan.[6] Jumladan, Davlatmurod ismli nuroniydan Qo'rqit bobo haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Uning aytishicha, barcha jirovlarning piyri sifatida tanilgan shaxs hazrati Buriq bo'lib, qoraqalpoqlar uni Qo'rqit bobo nomi bilan atashgan. Rivoyatga ko'ra, bir kuni Qo'rqit bobo onasidan sut chiqmay och qolgan bo'tani ko'rib, uning ahvolidan ta'sirlanadi. Shu holatdan ruhlanib, u bukri jiyda daraxtdan qo'biz yasaydi, uni echki terisi bilan qoplaydi hamda ot yolidan tor tayyorlaydi. So'ngra ushbu cholg'uda qayg'uli nag'ma ijro etib, to'lg'ov aytadi. Aytishicha, shu nag'maning ta'siri bilan nar tuyanining suti kelib, bo'tasi to'ygan ekan. Qoraqalpoq xalq musiqasidagi mashhur «Nar iydirgen» nag'masi ham aynan shu voqea bilan bog'liq holda yuzaga kelgani ta'kidlanadi.

Shu tariqa, xalq rivoyatlarida «Qo'rqit bobo qo'biz cholg'usini yaratgan va uning yordamida ilk musiqiy nag'malarni ijro etgan»[7] shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa qo'biz cholg'usining jirovchilik san'atidagi qadimiy ildizlari va uning epik ijrochilik an'anasida tutgan o'rini ko'rsatuvchi muhim folklor manbalardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq qo'biz - qahramonlik va botirlik dostonlarini ijro etish uchun mo'ljallangan musiqiy instrument sifatida namoyon bo'ladi [8]. Shu kabi qahramonlik eposlari mavjud xalqlarda turli musiqiy asboblardan foydalanilgan: qozoqlarda - qo'biz, o'zbeklarda - laqay, dolganda - xamus, xakaslarda - xayak yoki xaydshi.[9]

Qo'bizda tamoqni qirib aytish hunariga ega bo'lgan xalqlar juda kam bo'lib, bu an'ananing nodirligi va qimmatini ko'rsatadi. Tamoqni qirib qirildagan sado bilan ijro etish an'anasi qadimgi davrdan saqlanib kelayotgan musiqiy uslub hisoblanadi. [10] Bu usulning tarixi ilmiy tahlillar va og'zaki an'analarga ko'ra shunday izohlanadi: qadimgi zamonlarda jirovlar o'z ovozi uzoq masofaga yuborish orqali odamlarni chaqiruvchi vazifasini bajargan. Shu ma'noda, tamoqni qirib ijro etish texnikasi shu ijrochilik an'anasining uzluksiz davomi sifatida qaraladi.

Adabiyotlarda ham belgilanishicha, inson sivilizatsiyasida eng qadimgi madaniy yodgorliklardan biri sifatida qadimgi yunon teatri mramordan yaratilgan holda bizga yetgan. Shunga o'xshash tarzda, qoraqalpoq xalqining madaniy boyligi sanaluvchi qo'biz ham ilk yasalgan texnikasi va birinchi ijro etilgan nag'malari bilan bugungi kungacha saqlanib kelgan. Shu tariqa, jirovchilik an'anasi

va qo'biz ijrochilik hunari qadimgi davrlardan qolgan buyuk madaniy meros sifatida ilmiy e'tirof etilmoqda.

Xakas xalq madaniyatida «xay» atamasi tamoqni qirib ijro etish uslubini anglatadi va «xaydji-xay» - «qo'shiq aytuvchi», «jirchi» ma'nosini bildiradi.[11] Xakaslarda xaydjini ijro etish an'anaviy dasturiga aylangan bo'lib, odatda kechki mahal, xalq kundalik ishlarini tugatgandan so'ng amalga oshirilgan. Xaydjiga alohida o'rin berilib, uning ostiga ayiq terisi, gilam yoki kigiz to'shalgan. Xaydji jir ijro etishdan avval birinchi so'zni odatda yoshi katta oqsoqol boshlab bergan. Rivoyatlarga ko'ra, xaydji ijrochisi yolg'iz kelib, otsiz bo'lsa ham, xalq uning ehtiyojini qoplash maqsadida o'tli yordam beradi. So'ng xaydji tamog'ini qirib jirni ijro etadi. Bu an'ana xakaslarda qadimdan dasturga ega bo'lib, xaydjining ijrosi xalqni jin-arvoqlardan, yomon ruhiy ta'sirlardan himoya qilish vazifasini bajargan.

Xakas eposini ijro etuvchilarni jamiyatda balodan, yomon arvoqlardan amon saqlovchi, oila va ovchilik kabi asosiy kasblarning muhofazachisi deb hisoblashgan. Ovchilik bilan shug'ullanadigan xaydjilar ov qilishda ham jamiyat va tabiat bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy-funksional vazifani bajargan. Xaydjining ovozi yomon arvoqlarni quvuvchi va odamlarni xavfdan tozalaydigan vosita sifatida qabul qilishgan. Agar arvoqlarning kuchi kuchli bo'lsa, xaydjining sadosi ularni yengib, kasallik va zarardan himoya qilgan. Shu tariqa, xakaslarda xaydji ijrosi jamiyatda katta ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, odamlarga yaxshilik, tinchlik va farovonlik keltirish, yomonliklardan himoya qilish vositasi sifatida qaralgan. Xaydjiga alohida e'tibor va ma'no berilishi uning jamiyatdagi muhimlik darajasini ko'rsatadi.

Dolgan folklorida eposlar odatda «olongo», «bilina» yoki «olongo-bilina» deb ataladi. Bu janr ruslarning «bilina»si va qoraqalpoq, o'zbek, qozoq xalqlarining dostonlariga yaqin bo'lib, qo'shiq va proza elementlarini birlashtirgan holda ijro etiladi. Olongo eposlarini professional ijrochilar - olongo aytuvchilari ijro qiladi va ular o'z maktabi doirasida shogird tayyorlash an'anasiga ega. Ta'rixiy ma'lumotlarga ko'ra, taniqli jirchilar odamlar ishlarini qo'yib dam olish uchun kun botkandan keyin olongo va bilinalarni ijro qilgan. Ilgari, jirchilar boshini ro'mol bilan yopib ijro qilgan. Bilinalarni bir necha tunlar davomida tartib bilan ijro etadigan bo'lgan. Agar ijrochilar eposni oxirigacha aytmagan bo'lsa, ularning yoshi kamayishi yoki ijro qobiliyatining pasayishi mumkin degan tushunchalar mavjud bo'lgan. Ko'lamlil bilinalar odatda qismlarga bo'lingan holda ijro etilishi bilan ham ajralib turgan. Bilina ijro etuvchilarni kasallikdan davolaydigan shamonlik xususiyatiga ega deb ham qabul qilganlar. Dolgan xalqida yuqumli kasalliklarni davolashda bilinani ijro qilish usuli ham qo'llanilgan. Shuningdek, bilinalar bahorda qushlar kelishigacha aytishmagan, ularni qo'rqitib yubormaslik maqsadida. Olongoshilarning ijrochilik mehnatini moddiy jihatdan ham qadrlab, bir kecha aytishi uchun kiyim-kechak va boshqa sovg'alar inom e'tishgan.

Bu ma'lumotlar dolgan eposi va uni ijro etish an'anasining madaniy, ijtimoiy va ritual ahamiyatini ko'rsatadi.

Turk xalqlarida doston ijro etuvchilari asosan to'ylar va yig'inlarda faoliyat ko'rsatgan. Bu ijrochilar odatda «meddaxi» va «ashug» (oshiq) deb atalgan. XIV asrdan boshlab dostonlarni qissaxonlar va shaxnameaslar ham ijro etgan. Meddaxi ijrochilarning repertuarida ko'pincha avantiyur syujetlariga asoslangan, ajoyib voqealarni yorituvchi dostonlar mavjud bo'lgan, shu bilan birga oshiqlar repertuarida asosan hayotni bayon qiluvchi povestlar va hayotiy hikoyalar aks ettirilgan. Meddaxi ijrochilar ko'pincha yozma dostonlar asosida repertuarini shakllantirgan, oshiqlar esa o'z san'atida ustoz-shogird maktabi an'anasiga ega bo'lib, ustozlardan turli dostonlar, sozda chalish va yodan ijro qilish mahoratini o'rgangan. Oshiqlar o'z dostonlarini bir necha kechalar davomida ijro qilishlari mumkin. Oshiqlar repertuarida «Embrax va Selvi», «Shax Ismail», «Taxir va Zuxra», «Arz-u ham Kamber», «Asyuman ham Zeydjan» kabi mashhur dostonlar mavjud bo'lib, ular turk folkloridagi an'anaviy ijro uslubini va madaniy qimmatni aks ettiradi. Doston ijrosida oshiqning kirish qismi odatda «Dyosheme» deb ataladi va u qo'shiq yoki proza shaklida taqdim etiladi. Bu qism qisqa dostonga kirishga tayyorlik

vazifasini bajaradi va unda qiziqarli voqealar yoki oshiqning shaxsiy tajribalari aks etishi mumkin. Dyosheme tinlovchilarning talabiga qarab qisqa yoki uzoq shaklda bo'lishi mumkin. Oshiq dostonni diqqat bilan va shoshilmasdan o'z ritmida ijro qiladi. Ayrim dostonlar bir necha kunlar, hatto yetti kun davomida ham aytilishi mumkin. Dostonning to'xtagan joyi belgilanganda, ikkinchi kuni oldindagi tinlovchilar oshiqdan «Qaysi qismiga keldim?» deb ochiq so'raydi. Shuningdek, tinlovchilar orasidan bir shaxs to'xtagan joyini aytishi va oshiqga sozni taqdim etishi kerak bo'ladi. Oshiq bu shaxsga «agar bilsangiz, sozni olib ijro eting» deb topshiriq beradi va bu inson o'z navbatida oshiqga sarpo yoki gonorar (moliyaviy rag'bat) beradi. Bunday amal an'anaviy tarzda «bakshish» deb ataladi va ayrim holatlarda oshiqga bakshish oldindan ham berilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida qo'biz cholg'u asbobining tarixiy shakllanishi, uning turkiy xalqlar madaniyatidagi o'rni hamda epik ijrochilik an'alaridagi funksional ahamiyati tahlil qilindi. Ayniqsa, Qo'rqit bobo bilan bog'liq afsona va rivoyatlar qo'bizning yaratilishi hamda uning dastlabki ijro an'analari haqida tasavvur beradi. Ushbu rivoyatlarda

qo'biz nafaqat musiqiy cholg'u, balki inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega vosita sifatida talqin qilinadi. Qo'biz jirovchilik an'anasining asosiy musiqiy vositalaridan biri bo'lib, doston va jirlarni ijro etishda muhim badiiy funksiyani bajaradi. Shuningdek, tahlillar qo'bizning nafaqat musiqiy, balki madaniy-ramziy ahamiyatga ega ekanligini ham ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qo'biz turkiy xalqlar, xususan qoraqalpoq xalqining qadimiy musiqa madaniyatida muhim o'rin tutgan cholg'u asboblardan biri ekanligi aniqlandi. U nafaqat musiqiy ijrochilik vositasi, balki xalqning epik an'analari, og'zaki ijodi hamda ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, qo'bizning tarixiy taraqqiyoti va epik ijrochilikdagi o'rnini o'rganish xalq musiqa madaniyati hamda og'zaki ijod an'alarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish esa milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni ilmiy jihatdan yanada kengroq yoritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Вызго Т.С. «Музыкальные инструменты Средней Азии», М., 1980.
2. Книга моего деде Коркута.-М.:Л.,1962.-С.12.
3. Karimov A. Ádebiyatımızdın geypara máseleleri: Ádebiy-kritikalıq maqalalar. -Nókis.: «Qaraqalpaqstan», 1988, 160 b.
4. Bahadirova S. Qaraqalpaq qanday xalıq.-Tashkent.: «Nawrıız»,2017. 256 b.
5. Sultanov Á. Qıl qobız. Amudarya. 1988-j. №9, 100-b
6. Karl Rayxl. Qaraqalpaq jırawları hám eposlıq dástúrleri jóninde. Amudarya. 1997-y. №3-4, 84-b
7. Ayumbetov Q. Xalıq danalıǵı.-Nókis.: «Qaraqalpaqstan»,1988.72-bet.
8. Qashqariy M. «Devon-u lug'atit turk». –Tashkent,1960.-I.t.,346-b.
9. В.М.Жирмунский. «Тюркский героический эпос». А., Наука, 1974г. 553с.
10. Dáwqaraev N. «Qaraqalpaq ádebiyatınıń tariyxı boyınsha ocherkleri», Nókis, QQMB, 1961-j.)